

## “MEHROBDAN CHAYON”DA QO‘LLANGAN FRAZEOLOGIZMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Ziyotova Surayyo Erkin qizi,**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, (PhD),*

**Abdufattoyeva Aziza Raufjon qizi,**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi*

**Abdurashidova Mahfuza Iskandar qizi,**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada badiiy matndagi frazeologizmlar pragmatik va lingvistik jihatdan yoritilgan, frazemaning qo‘llanish o‘rni hamda matndagi pragmatik, semantik hamda uslubiy vazifasi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** frazema, ibora, frazeologizm, semantika, pragmatika, uzual ma‘no, okkazional ma‘no, sinonimiya, personaj nutqi, uslub.

**Annotation.** In this article the author analysis the pragmatic and linguistic sides of phrases in fictional context, the usage of phrases as well as the pragmatic, semantic and stylistic tasks of phrases in the context have been identified.

**Key words:** phrase, phraseology, semantics, pragmatics, usual meaning, occasional meaning, synonymy, speech of hero, style.

**Аннотация.** В статье рассматривается фразеология в литературных текстах с прагматической и лингвистической точек зрения, определяется место применения фразеологии и её прагматическая, семантическая и стилистическая функция в тексте.

**Ключевые слова:** фразеология, выражение, фразеология, семантика, прагматика, обычное значение, казуальное значение, синонимия, речь персонажа, стиль.

**Kirish.** Badiiy matnning ta‘sirchanligini oshiruvchi omillardan biri tilda mavjud frazeologik birliklardan o‘z o‘rnida va unumli foydalanishdir. A.A. Potebnya tilni xalq tarixi, folklor, badiiy ijod, umuman milliy madaniyatni tashkil etuvchi barcha jihatlar bilan o‘rganish lozimligini aytadi. [1; 38]. Iboralarning shakllanish dinamikasi xalq tarixi, madaniyati, dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq. Ibora frazeologizm, frazeologik birlik, frazema terminlari bilan ifodalaniib kelinmoqda. Ibora so‘z birikmasi, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma‘no anglatadigan, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlikdir. [2; 124]. Ibora yirik til birligi bo‘lib, kamida ikkita mustaqil so‘zdan (leksemadan) tarkib topadi. Shunga ko‘ra iboraning ifoda plani deb so‘zlar (leksemalar), shular tarkibidagi til birliklari ko‘zda tutiladi. [3; 4]. Frazeologik shakllanish bahsi tilda ma‘lum usul va vositalar yordamida frazeologizmlar hosil qilishning qonuniyatlarini o‘rganadi. Maqsad va vazifalariga ko‘ra frazeologik shakllanish so‘z yasalishiga yaqin turadi. [4; 31]. Iboraning ko‘chma ma'noga asoslanishi, obrazlilik uning tasvir imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan badiiy asar tilida ibora (badiiy) tasvir vositasi sifatida xizmat qiladi. [5; 49].

**Adabiyotlar sharhi.** Abdulla Qodiriy o‘zining “Mehrobdan chayon” asarida turkiy tilda mavjud bo‘lgan frazeologik birliklardan unumli foydalangan. Muallif asar voqeligini

ifodalashda, qahramon ruhiyati, fe'l-atvorini yoritish jarayonida til imkoniyatlaridan o'rinli va mohirona foydalangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda "Mehrobdan chayon" romanida qo'llangan frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlarini o'rganishda kompleks filologik yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida badiiy matnni lingvopoetik, semantik-stilistik hamda kontekstual tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Avvalo, asardagi frazeologik birliklar tanlab olinib, ularning semantik tabiati, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi va personaj nutqidagi funksional vazifasi aniqlashtirildi. Shu bilan birga, frazeologizmlarning milliy-madaniy mazmuni ifodalashdagi o'rni ham tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida tavsifiy metod yordamida frazeologik birliklarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari yoritildi, qiyosiy-tipologik metod asosida esa ularning boshqa badiiy matnlardagi qo'llanish holatlari bilan umumiy va farqli jihatlari solishtirildi. Lingvostilistik tahlil orqali muallifning individual uslubi, obraz yaratish mahorati hamda badiiy nutqda frazeologizmlarning estetik funksiyasi ochib berildi. Shuningdek, kontekstual tahlil metodi vositasida frazeologik birliklarning matn tarkibidagi ma'no o'zgarishlari, pragmatik yuklamasi va kommunikativ ahamiyati tadqiq etildi. Tadqiqotning nazariy asosini frazeologiya, uslubshunoslik, lingvopoetika va badiiy matn tahliliga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot natijasida romandagi frazeologik birliklarning obrazlilikni kuchaytirish, milliy koloritni ifodalash, qahramon xarakterini ochish va muallif estetik niyatini yuzaga chiqarishdagi uslubiy imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Tahlillar va natijalar.** "Mehrobdan chayon" asari tilida qo'llangan iboralarni mavzu-mohiyati jihatidan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ruhiy holatni ifodalovchi frazemalar. O'zbek tili frazeologik sistemasida iboralarning katta guruhi faqat asosiy ma'noni ifodalab qolmasdan, balki so'zlovchining shodligi, g'azabi, nafrati, o'kinchi, qo'rquvi, kinoyasi, jirkanishi kabi emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi. [6; 92]. Adib asar tilida personajlar ruhiy holati, kechinmalarini ifodalashda iboralardan o'z o'rnida foydalangan: *yuragiga o't yoqar edi, o'pka aralash, qanot qoqib, dimog'idan dud chiqadir, ko'zi qiymaydir, yuragi achishib va h.k.* Buni ayrim iboralar vositasida tahlil qilamiz: "**yuragiga o't yoqar edi**" iborasi "hasad qilmoq" semasini ifodalab, personajlarning ruhiy holatini obrazli tarzda ochib bergan. Iboralarning biror voqea-hodisa, xarakterga nisbatan ijobiy yoki salbiy baho berish funksiyasi ham xarakterlidir. *Anvarning yozg'an har bir jumlasini musiqiy kabi rohatlanib, tushunib tinglar va "shu bala barilaringdan ham o'qug'anraq chiqar!" deb, boshqa mirzolarining yuragiga o't yoqar edi.* Kelib chiqish jihatidan jest va mimika bilan bog'liq ayrim iboralar kishilarning ichki kechinmalarini ifodalash va shu asosda emotsional funktsiya bajarish uchun xizmat qiladi. *Nos chakib yurgan Bahodirxon qulog'ig'a bu xabari jon so'z yetib dumog'idan dud chiqadir.* Asarning ushbu parchasining o'zida bir nechta muallifning o'ziga xos okkazional ma'nodagi

frazemalardan foydalanilgan: *“nos chakib yurgan”* – “beparvo”, “o‘ylamagan” degan ma’noni bildiruvchi muallifning o‘ziga xos iborasidir. Frazemalarni yangi, individual variantlarda qo‘llash jarayonida uning yumiristik yoki satirik xususiyati yanada bo‘rtibroq ko‘rinadi. Shuningdek, *“dimog‘idan dud chiqadir”* iborasidagi “dud” leksemasi forscha “tutun”. “qurum”; “oh”, “nola” [7; 656] so‘zdan olingan bo‘lib, ko‘chma ma’noda “achchiqlanish”, “jahl chiqish” semalarini ifodalagan bo‘lib, *“fig‘oni falakka chiqdi”* iboraning sinonimidir. Lekin biri okkazional, biri uzual ma’nodaga frazemalardir. Okkazional/muvaqqat ma’no lotincha so‘zdan olingan bo‘lib “tasodifiy” degan ma’noni bildirib, so‘zning ma’no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma’lum individual qo‘llanishda yuzaga chiqadigan ma’noni [2; 67] ifodalab, ayni muallifga xos improvizatsiyaga asoslangan topilma ma’nodir. Uzual ma’no esa lotincha “odat”, “qoida” degan ma’noni bildirib, so‘zda lug‘aviy sifatida bor, umum tomonidan qabul etilgan, umum qo‘llanishdagi ma’noni [2; 113] bildirib, so‘z, shakl, frazeologizmlarning til egalari tomonidan to‘g‘ri va maqbul deb topilgan qo‘llanilishidir.

2. Muayyan harakat, holat, jarayon bilan bog‘liq iboralar. *“Yeng shimarib”* - biror yumushni bajarishga “taxt bo‘lmoq”, “biror ishni qilishga otlanmoq” [3; 79] mazmunini bildiradi: *Men... uni o‘rdadan jo‘natdim, natijada hozirg‘i ifloslikka yeng shimardilar* – qahramonlarning astoydil, jiddiy ravishda harakat qilish jarayonini ifodalamoqda.

*“O‘lim yag‘mogari kelib uzdi”* – “yag‘mo” so‘zi eski o‘zbek tilida “talon-taroj”, “buzg‘unlik” [7;131] ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lib, o‘linga olib ketuvchi deb Azroil farishtaga ishora qiluvchi muallifga xos frazemadir: *Bir kun oradag‘i do‘stliq rishtasini o‘lim yag‘mogari kelib uzdi.* Ushbu frazema *jon bermoq, oxirgi yo‘lga uzatmoq, tuproqqa topshirmoq, tuz-nasibasi uzilmoq, jonini jabborga topshirmoq, vaqti-kuni bitmoq* “o‘lmoq” ma’noli frazemalarga semantik jihatdan juda yaqin. Tilshunoslar iboralarda sinonimiyani belgilashning ayrim mezonlarini taklif etadi. V.P.Jukovning fikriga ko‘ra, frazeologik sinonimiya shunday frazemalarki, ular bir xil yoki ma’no jihatdan juda yaqin, o‘zaro munosabatdagi bir xil so‘z turkumlaridan iborat bo‘lsa-da, biroq bir-biridan ma’no ottenkalari bilan u yoki bu tomondan farqlanadilar. [6; 66]. *Anvar to‘g‘risida eri bilan achchig‘-tiziq bo‘lg‘an bir kun paranjisini yopinib ko‘chaga chiqdi va to‘g‘ri Solih maxdumning uyiga bordi.* *“achchig‘-tiziq bo‘lg‘an”*- iborasi “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da ketirilmagan, lekin ushbu iboraning sinonim variantlari bor: *nari-beri bormoq, adi-badiga bormoq* [3;184] – “xafalashmoq”, “janjallashmoq” ma’noda qo‘llaniladi. Sinonim iboralar bir-biri bilan “ma’no nozikligi, uslubiy bo‘yog‘i yoki bir vaqtda ikkalasiga ko‘ra farqlanadi. *Chunki Abdurahmon yana bir iljayib ikki og‘iz so‘z aytsa, Kalonshohning og‘zini tikish og‘ir oshar, Shahodat mufti buni yaxshi anglar edi* – asar matnida keltirilgan yana bir o‘ziga xos *“og‘zini tikish”* iborasi *“jag‘ini yumish”* iborasini sinonimi tarzida qo‘llangan bo‘lib, “jim turish” ma’nosida voqelangan. Muallif frazemaga obrazli tarzda yondashgan.

Ba'zan frazema gap tarkibida boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishar ekan, ibora komponentlarining biri boshqasiga almashtirilishi mumkin. Agar almashtirish uslubiy, semantik, mantiqiy jihatdan asoslangan bo'lsa, uning ta'sirchanligi, bo'yoqdorligi va uslubiy samaradorligi yanada oshadi. Odatda, ibora tarkibidagi komponent o'zgarishi muayyan shart-sharoit, matn talabi bilan amalga oshiriladi. Masalan, *Domlaning yetti tilloni olg'andag'i holini tasvir qilish, albatta, qiyindir; ko'zlari g'ilaylashqan, aftida qiziq o'zgarish ko'rilib, og'zining tanobi uzoq sayohatni ixtiyor qilg'an* – “habba...hosiling durust, Anvar bolam, lekin pulga ehtiyot bo'l, bo'tam!” degan edi. Bu holat asarda “og'zining tanobi qochmoq”, “og'zi qulog'ida bo'lmoq” iboralari bilan emas, balki matn talabi, qahramonning ayni vaziyatdagi jest-mimikalarini yorqin ochib berishda “**og'zining tanobi uzoq sayohatni ixtiyor qilg'an**” iborasi bilan berilgan. Bu iboraning kuchaytirilgan shakli, asarga yanada emotsionallik bergan.

3. Sifatlash xarakteridagi iboralar. Frazemalar personaj nutqida qo'llanish darajasi har xilligi bilan ajralib turadi, ya'ni ayrim personajlar nutqida iboralardan keng foydalanilsa, boshqa bir guruh personajlar onda-sonda ibora qo'llashi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, muallif asar voqealarini tasvirlash jarayonida ham personaj tabiatidan kelib chiqib, frazemalardan qo'llagan. Xususan, asarda Solih maxdum, Nigorxonim, Kalonshoh mirzo, Safar bo'zchi kabi qahramonlarni muallif tasvirlash jarayonida ham, personaj nutqida ham iboralardan ko'p miqdorda va o'rinli foydalangan: “**yeshilib ketdi**” iborasi “saxiy bo'lmoq” ma'nosida bo'lib, Solih maxdum kabi xasis va kamchiqim qahramonning xarakterini ochib berishga xizmat qilmoqda: *Maxdum tomonidan Ra'noning tergalishi Nigor oyimni uncha mashg'ul etmadi. Ammo hozir uning ko'ngliga kelgan masala erining chiqim vajiga favqulodda yeshilib ketishi edi.* Shuningdek: *Agar yamoqchi kekirarlik darajada tomoqni bopta qilsa, ishi o'ngidan kelib, istiqboli bir muncha ta'minlangandek bo'lsa, darhol vaziyat ishonmasliq ravishda o'zgarib ketadi.* Solih maxdumning oilaga, ro'zg'orga munosabatini ochib berishda “**kekirarlik darajada bopta qilmoq**”, “**ishi o'ngidan kelmoq**”, “**istiqboli bir muncha ta'minlangandek**” kabi bir mazmundagi sinonim iboralar qo'llanilgan. Ushbu frazemalarning “**ishi o'ngidan kelmoq**”, “**istiqboli bir muncha ta'minlangandek**” variantlari, odatda, uzual shaklda ommaviy-so'zlashuv, badiiy uslublarida ishlatiladi. Lekin “**kekirarlik darajada bopta qilmoq**” varianti improvizatsiyaga asoslangan, ijodkorning o'ziga xos okkazional usulida yaratilgan. “Kekirish” leksemasi “to'qliq” semasini bersa, “bopta” leksemasi esa belgi-xususiyati talab darajasida; to'g'ri keladigan, munosib, bop, mos [8; 312] degan mazmuni bildirib, “hayot darajasi me'yoriga kelish”, “boy bo'lish” semalarini ifodalagan. Muallif Solih maxdumning hayot darajasi o'z me'yoriga kelsa ham, lekin uning ziqna, xasislik odatlarini ushbu o'xshatish orqali tanqid ostiga oladi Ushbu iboralar ham okkazional xarakterga ega bo'lib, Qodiriy uslubiga xos yangilikdir.

Yozuvchi obraz yaratar ekan, uning xatta-harakatlari, qiliqlari orqali emas, nutqi orqali ochishga, yoritishga harakat qiladi. Har bir personaj o'z nutqiy ohangiga ega

bo'lganidek, o'ziga xos ibora qo'llash usuliga ham ega bo'ladi. Jumladan, asardagi Solih maxdumning **“habba”** takrorlanuvchi o'ziga xos nutqi, **“ha barakalla”** ma'nosidagi ibora bo'lib, tashqi olamdagi voqelikka o'zining munosabatini, personaj nutqiy xarakteristikasining individual funksiyasini bajargan: *Domlaning bu “habba”si nima ma'noda qo'llanilar, o'zidan boshqa hech kim bilmaganidek, undan bu to'g'rida izoh ham so'ramag'an edilar. Chunki ul bir narsadan xursand va rozi bo'lg'anda aksar “habba” deb yuboradir.* Obraz xarakteridagi odatga ishora qiladi, shu bilan matni ixchamlashtirishga xizmat qiladi. Ba'zan iboralar muayyan tushunchani obrazli nomlamasdan, butun matnga kuchli obrazlilik baxsh etadi. Ba'zan personaj nutqi tarkibida bir iboraning qayta-qayta qo'llanilishi o'sha ibora orqali obrazlilik, personaj xarakterini matnda kuchliroq yetkazib berishga xizmat qiladi. [6; 102].

**Xulosa** o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, badiiy asar qahramonlarini yaratish jarayonida ishtirok etadigan til vositalari orasida frazemalar alohida o'rin tutadi. Ular personajning muayyan ijtimoiy muhitga tegishli ekanligini, personaj nutqining o'ziga xosligini gavdalandirish uchun vosita hisoblanadi. Muallif voqelikni tasvirlashda, inson ruhiyati, xarakterini yoritish jarayonida frazemalardan o'rinli va mohirona foydalangan. Uzual ma'nodagi frazemalardan ko'ra, muallif asar tasvirida individual, o'ziga xos iboralarni qo'llagan. Bu esa adibning mahoratidan va o'ziga xos uslubga egaligidan dalolatdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Потебня, А.А. Слово и миф. – М., 1989.
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978.
4. Маматов А. Лексемалар асосида фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. № 3.
5. Абдувалиева Д. “Тарихи мулки аҷам»да қўлланган паремиологик бирликлар ва уларнинг услубий хусусиятлари // Тилшуносликнинг долзарб масалалари, 2013, №6.
6. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.–Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I том.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.–Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. V том.
9. Қодирий А. Меҳробдан чаён. – Т.: Фафур Фулом, 2018.